

Date: 5th November-2024

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING MAHALLA HUQUQ TARTIBOT
MASKANIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH FAOLIYATIDA
SOHAVIY XIZMATLAR BILAN HAMKORLIGI

Samandarov Jahongir Doniyor o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-o'quv kursi 320-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Profilaktika inspektorlarining mahalla huquq tartibot maskanlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash tushunchasi, uning maqsad va vazifalari, asosiy yo'nalishlari, faoliyatni tashkil etish tartibi hamda huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari yoritib o'tilgan.

Annotation: In this article, the concept of preventive inspectors to ensure public safety in neighborhood law and order centers, its goals and tasks, main directions, order of activity organization and specific features of crime prevention activities are explained.

Kalit so'zlar : Jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash, hamkorlik, ichki hamkorlik, huquqbuzarlik, jinoyatchilik.

Key words: public order, public safety, ensuring public safety, cooperation, internal cooperation, offense, crime.

Jamiyatda hukm surayotgan osoyishtalikni mustahkamlash aholining huquqiy ongi va madaniyatiga, qonunlarga bo'lgan munosabatiga ham bog'liq. Qayerda jinoyatchilikka nisbatan murosasizlik muhiti qaror topmas ekan, huquqbuzarliklarning turli ko'rinishlari sodir etilaveradi. Buning uchun aholi bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini o'z vaqtida hal etish, oilalarda sog'lom muhitni qaror toptirish, jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish lozim bo'ladi.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishilmoqda.

Bunda, ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini, qishloqlar, ovulla va mahallalarda jamoat tartibi saqlanishini, fuqarolar xavfsizligini, jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita ta'minlaydigan profilaktika inspektorlarining o'rni katta.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatni yo'lga qo'yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

2021-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.



Date: 5th November-2024

Mazkur Farmonda ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari tashkil etilishi belgilandi. Ta'kidlash joizki, mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanadi.

Maskan negizida hududdagi ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari hamda Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati tashkil etiladi. Shuningdek, maskan tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklandi.

Tizimga raqamli texnologiyalarni qo'llash va aholiga yana-da qulaylik yaratish maqsadida, profilaktika inspektorlariga masofadan turib murojaat qilish va uni ko'rib chiqish jarayonini kuzatib borish, aholi bilan o'zaro tezkor muloqotni yo'lga qo'yish imkonini beruvchi "Smart mahalla" dasturi ishlab chiqilmoqda.

Amalga oshirilayotgan ishlardan kelib chiqib, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi yuzasidan mahalla huquq-tartibot maskani profilaktika inspektorlari faoliyati samaradorligini yana-da oshirish yuzasidan ba'zi takliflarni ilgari surmoqchiman. Jumladan, hududiy davlat organlari tomonidan profilaktika inspektorlariga ularning vakolatiga kirmaydigan masalalar yuzasidan topshiriqlar berilishini cheklovchi va bunday holatlar yuzasidan tegishli javobgarlik choralarini nazarda tutuvchi qonunchilikni takomillashtirish zarur. Bundan tashqari, profilaktika inspektorlarida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularni sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini chuqur tahlil qilish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarini yana-da rivojlantirish va bu buyicha hududiy ichki ishlar tuzilmalarida maxsus o'quv kurslarini joriy etish maqsadga muvofiq bo'lardi.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, mahalla huquq-tartibot maskanlari profilaktika katta inspektorlari jamoat xavfsizligini ta'minlash holati to'g'risida har 6 oyda xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlariga hisobot taqdim etadi.

"Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, mahalla huquq-tartibot maskanlari ichki ishlar organlari faoliyatini bevosita mahallalarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha, fuqarolar xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalari hamkorlikda ishlashini mahallalar kesimida tashkil etish bo'yicha amalga oshiradigan tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

Mahalla huquq-tartibot maskanlari o'z faoliyatini quyidagi tarkibda amalga oshiradi:

- profilaktika katta inspektori, profilaktika inspektori, profilaktika inspektori jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi (har kunlik asosda);
- mazkur hududda xizmatni o'tash uchun birlashtirilgan tuman (shahar) ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, probatsiya bo'linmasi inspektori, tezkor vakil, patrul-post xizmati xodimlari;



Date: 5th November-2024

- jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasiga ko‘maklashish uchun yuborilgan Milliy gvardiya bo‘linmasi va boshqa vakolatli davlat organlari xodimlari, jamoat tuzilmalari vakillari.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

